

## JIZZAX VOHASINING SUG'ORILISH TIZIMI TARIXIDAN

*Pardayev Muhtorqul Hasanovich.*

*Samarqand Arxeologiya instituti yetakchi ilmiy xodimi, t.f.n. dots*

*Axmadqulov Nozimjon Ravshan o'g'li.*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti tarix fakulteti talabasi*

**Annotasiya.** Maqola Jizzax vohasining qadimiy irrigatsiya tizimlari tarixi haqida bo'lib, unda ushbu madaniy o'lka, tadqiqotchilar tomonidan Yuqori Sangzor (Nushkent bosh shahri bilan), O'rta Sangzor (Xarakana bosh shahri bilan), Quyi Sangzor (Feknon bosh shahri Dizak bilan), Zominsuv (Zomin rustoqi bosh shahri bilan), Ravatsoy (To'rtko'ltepa bosh shahri bilan), Majrumsoy (Majrumtepa bosh shahri bilan), Xo'jamushkentsoy (Savat rustoqi markaziy shahri Kultepa bilan) irrigatsiya rayonlariga bo'lib o'rganilganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ustrushona, Istahriy, Sangzor daryosi, Nushkent shahri, Xarakana rustoqi, Feknon rustoqi, Dizak, Zomin rustoqi, Ravotsoy irrigatsiya rayoni, Majrumsoy, Xo'jamushkentsoy, Savat, Kultepa, Tuyatortar kanali.

Markaziy Osiyoda Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm, Parfiya, Farg'ona, Choch va Ustrushona kabi tarixiy-madaniy o'lkalarning vujudga kelish jarayonida mintaqaning asosiy suv manbalari Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Murg'ob, Sangzor daryolari asosiy rol o'ynagan. Ta'kidlash joizki, tarixiy-madaniy vohalarning sug'orilish tarixini mukammal o'rganish bugungi kunda tarix fani oldida turgan eng muhim muammolardan biridir.

Turon zaminining markaziy qismida joylashgan, o'rta asrlarda Ustrushona nomi bilan tarixga kirgan davlatning shimoli-g'arbiy o'lkasi Sangzor vodiysida ham qadimgi dehqonchilik madaniyatining vujudga kelishi, sug'orish tarmoqlari, suv inshootlarining barpo etilishi hamda irrigatsiya xo'jaligining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga kelgan. Ustrushona davlati Turon zaminining qadim va o'rta asrlar tarixida muhim o'rin egallagan bo'lib, uning shimoli-g'arbiy o'lkasini Jizzax vohasi tashkil etadi.

Voha Sirdaryo va Zarafshon daryolari oralig'ida joylashgan bo'lib janubdan Morguzar, g'arbdan Nurotaning Quytosh tizmalari o'rab turadi. Hududning sathi janub va janubi-g'arb tomonga asta-sekin ko'tarilib boradi va tog' etagida Sangzor daryosi hosil qilgan tekisliklarga, tog' etaklari va so'ngra tog' tizmalariga tarqaladi [Дунин-Барковский. 1976. с.298].

Ilk o'rta asrlarda ommaviy o'troqlashuvni amalga oshirilishi tabiiy ravishda su'g'orma dehqonchilik yerlarini kengayishiga, bu esa o'z navbatida irrigatsiya tarmoqlarini rivojlanishiga, yangidan- yangi sug'orish shaxobchalarini bunyod

etilishiga sabab bo'lgan. A.I.Bilalovning e'tirof etishicha - «ilk o'rta asrlarda bunyod etilgan irrigatsiya tizimlari va inshootlari deyarli katta o'zgarishlarsiz bir necha yuz yilliklar davomida xizmat qilgan, ayrimlaridan hozirgacha foydalanilmoqda. Bu davrda butun Ustrushona bo'yicha umumiy uzunligi 3 ming km. bo'lgan irrigatsiya tarmoqlari faoliyat ko'rsatgan va shu asosda 200 ming ga. yerni sug'orish imkoniyatiga erishilgan» [Пардаев М. ва б. 1999. 230 с. ].

Shimoliy-g'arbiy Ustrushonada ilk o'rta asr sug'orma dehqonchilik xo'jaligi har bir kichik voha va unga tutash madaniy tekisliklarda, aynan o'sha mavzening suv manbalari (daryocha, soy, buloq), ziroatchilik paykallarining geomorfologik tuzilishi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda taraqqiy etgan. Bu holat Ustrushonaning butun dehqonchilik mavzelari uchun xususiyatli bo'lgani sababli o'rganilayotgan mintaqada yaxlit, umumiy, markazlashgan sug'orish tuzimlar yana barpo qilishga imkoniyat bermaydi. Bu fikrlar vohaning arxeologiya yodgorliklari majmuyini tuzish uchun qidiruv ishlari olib borilganda o'z tasdig'ini topdi. Yodgorliklar ma'lum kichik vohaning ma'muriy, madaniy markazi sifatida faoliyat ko'rsatgan shahar atrofida to'plangan. Bu bizningcha yuqorida ta'kidlangan kichik vohalarning muvaqqat xo'jalik yuritishi, ayniqsa markaziy shahar mudofaasi, harbiy strategiyasini hisobga olib amalga oshirilgan.

Sangzor daryosi havzasi Ustrushonaning qadimdan aholi zich joylashgan, dehqonchilikka asoslangan, o'troq hayot qaror topgan madaniy o'lkalari qatoriga kirgan. Bu xildagi aholi zich joylashgan madaniy vohalarga o'rta asr Ustrushonasi tarkibiga kirgan Sabat rustoqini, Zominsuv atrofidagi Zomin-Sarsanda o'lkasini, Sangzor daryosi havzasidagi Burnamad, Xarakana, Feknon viloyatlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Bu manzillarda hozirga qadar saqlanib qolgan qadimgi sug'orish tarmoqlari, sardoba, koriz suv inshootlari madaniy meros sifatida qayd etilgan. O'rta asrlarda Ustrushonaning tarkibida bo'lgan Jizzax vohasi sug'orilish tarixiga doir ilk ma'lumotlar dastlab Istahriy "Ustrushonaning katta qismini tog'lar egallaydi, unda kemalar suza oladigan daryo va ko'llar yuq. Ustrushona shaharlari Arsanikat, Kurkat, Gazak-Vagkat, Sabat, Zomin, Dizak, Nujkat, Xarakana, davlat hukmdorlari yashaydigan bosh shahar Bundjikatdir" – deb xabar beradi [Истахри. 1973. с. 18-19.].

Ibn Xavqal esa, o'z esdaliklarida quyidagicha ma'lumot beradi: "Ustrushona Movarounnaxrning boshqa viloyatlari singari bog' va, poliz ekinlarining ko'pligi va turli-tumanligi bilan shuhrat qozongan. Bu ne'matlar chet o'lkalarga qo'shni shaharlarga olib borib sotilgan"[ Бетреп Е.К. 1957. с. 17-21]. Shunday qilib, ushbu yozma manbalar o'rta asrlarda Ustrushona davlat tarixi, moddiy madaniyati, sug'orish irrigatsiyasi haqida g'oyat qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik izlanishlar esa bu tarixiy yozma manbalarni yangi ma'lumotlar bilan to'ldirishga imkon yaratdi. 1962-1970-yillar o'rtasida shimoli-g'arbiy Ustrushonaning sug'orilish tarixiga bag'ishlangan bir necha

tadqiqotlar yuzaga keldi. Jizzax vohasidagi Eski Tuyatortar kanali bo‘ylab o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha Tuyatortar kanali eramizning boshlarida Zarafshon daryosining o‘ng qirg‘og‘idan chiqarilgan sun‘iy sug‘orish tarmoqlaridan bosh olib Farmontepa qal’asi atroflari o‘zlashtirilgan. [Муҳаммаджонов А. 1972. 312-319 с.]. Shuningdek, S. Anorboev boshliq bir guruq arxeologlar tomonidan dastlab, Tuyatortar kanalining yuqori qismidagi «Farmontepa» qal’asida, so‘ngra Do‘smat vohasida o‘tkazilgan qazuv - qidiruv tadqiqotlari o‘z samarasini berdi. S. Anorboev «Farmontepa» atrofidan topilgan ilk o‘rta asrlarga oid ashyoviy dalillarga asoslanib vohani VI-VIII asrlarda, sun‘iy sug‘orma dehqonchilik asosida gullab yashnaganligi to‘g‘risida ma’lumot beradi. [Анорбоев С. 1974. 52-53 с].

O‘zbekiston arxeologiya yodgorliklari majmuasini tuzish mavzusi ostida arxeologiya instituti Jizzax otryadi 1980-yillarda M. Pardayev boshchiligida Sangzor vohasining nisbatan yirik oqar suv manbalari mavjud vodiylarida qidiruv va qazuv-tadqiqot ishlarini o‘tkazdi. Otryad katnashchilari daryo xavzasidagi gavjum va zich joylashgan arxeologiya yodgorliklari guruxiga binoan madaniy vohalardan tashkil topgan irrigatsiya rayonlari hududini aniqladilar. Bular Yuqori Sangzor (Nushkent bosh shahri bilan), O‘rta Sangzor (Xarakana bosh shahri bilan), Quyi Sangzor (Feknon bosh shahri Dizak bilan), Zominsuv (Zomin rustoqi bosh shahri bilan), Ravatsoy (To‘rtko‘ltepa bosh shahri bilan), Majrumsoy (Majrumtepa bosh shahri bilan), Xo‘jamushkentsoy (Savat rustoqi markaziy shahri Kultepa bilan) irrigatsiya rayonlaridir.

Jizzax vohasining asosiy suv manbai hisoblangan Sangzor daryosi Turkiston tog‘larining 2300 m. balandlikdagi Shungqor tizmasi shimoli yon bag‘ridagi tog‘soylari Guralash, Boyqo‘ng‘ir, Jontaka, Quruqsoylarning qo‘shilishidan paydo bo‘ladi va Morguzor tizmasini yoqalab G‘allaorol, Jizzax vodiylari tomon oqadi. Toshzor ma’nosini anglatuvchi Sangzor daryosining suv yigish maydoni - 2580 km.ni tashkil qiladi [ Нишонов С. 1980. 15 с].

Sangzor daryosi o‘tmishda uch madaniy o‘lka Burnamad (Baxmal), Xarakana (G‘allaorol), Feknon (Jizzax) rustoqlarining asosiy suv manbai bo‘lib xizmat qilgan. Sangzor daryosiga Burnamad (Baxmal) rustoqigacha Turkiston hamda Morguzar tog‘tizmalaridan boshlangan, uncha katta bo‘lmagan – Allausmon, Uybodom, Ko‘kjar, Terakli, Palahmon, Oqmulla, Shoybeksoy kabi suv manbalari kelib qo‘shiladi. Ustrushonaning Xarakana (G‘allaorol) dagi qadimgi shahar harobasi Qurg‘ontepagacha Sangzor daryosiga yana bir necha kichik suv manbalari Dangarasoy, Oqqo‘rg‘onsoy, Tag‘opsoy, Tangatopdisoy, Jumjumsoy, Vadigansoy, Yettikushonsoy, Turg‘unsoylar qo‘shilib daryo suvining katta bir irmog‘ini tashkil qiladi. Shu soylar bilan bir qatorda Zarafshon daryosidan bosh olgan Tuyatortar kanalini suvi ham G‘allaorol tumanining O‘rta va Gul qishloqlari oralig‘idan o‘tib Sangzor daryosiga kelib qo‘shiladi. Bu katta to‘plangan suv manbayi orqali Sangzor

daryosi Xarakana (G'allaorol) rustoqini suv bilan ta'minlab o'z yo'nalishini Feknon (Jizzax) tomon o'zgartiradi. So'ngra daryoning suv manbai bu vohaga borib bir necha sug'orish tarmoqlariga bo'linib ketadi [Суюнов С. 1999. 68-71 с.].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, Jizzax vohasi Yuqori Sangzor bosh shahri Nushkent bilan, O'rta Sangzor bosh shahri Xarakana bilan, Quyi Sangzor Feknon bosh shahri Dizak bilan, Zominsuv bosh shahri Zomin rustoqi bilan, Ravatsoy bosh shahri To'rtko'ltepa bilan, Majrumsoy bosh shahri Majrumtepa bilan, Xo'jamushkentsoy markaziy shahri Kultepa Savat rustoqi bilan irrigatsiya rayonlariga bo'lib o'rganilgan. Sangzor daryosi havzasi Ustrushonaning qadimdan aholi zich joylashgan, dehqonchilikka asoslangan, o'troq hayot qaror topgan madaniy o'lkalari qatoriga kirgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Истахри. Китаб масалик ал-мамалик //Материалў по истории киргизов и Киргизии. Вўп. I. Москва.1973.
2. Муҳаммаджонов А. Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи Тошкент. 1972.
3. Анарбаев С. Туятортар канали қурилиши тарихи // Археологлар ҳикоя қилади. Тошкент. 1974.
4. Пардаев М., Суюнов С., Пардаев А. Шимоли-ғарбий Уструшонада суғорма деҳқон хўжалигининг пайдо бўлиши ва тараққиёт босқичлари // ЎММТ- 30 сон. Самарқанд. 1999.
5. Нишонов С. А. Жиззах вилояти. Тошкент. 1980.
- 6.Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абул-Касыма ибн Хаукаля // Труды САГУ, Археология Средней Азии. Вып. IV, Ташкент. 1957.
- 7.Дунин-Барковский Л.В. Физико-географические основў ирригации. Москва. 1976.
- 8.Суюнов С. Шимоли-ғарбий Уструшонанинг суғорилиш тарихи (V-XVI асрлар, археологик материаллар асосида). Диссертация қўлёзма. Самарқанд. 1999.